

Yaponiyada magistratura: To'liq grant va 1070 AQSH dollar oylik stipendiya

Yaponiyada magistratura: To'liq grant va 1070 AQSH dollar oylik stipendiya

YAPONIYADA MAGISTRATURA: TO'LIQ GRANT VA 1070 AQSH DOLLAR OYLIK STIPENDIYA

Qayerda: Yaponiya

Kim uchun: Magistratura bosqichida o'qishni xohlovchilar uchun

Ariza topshirish muhlati: 2018-yilning 28-fevraligacha

Umumiy ma'lumot: Yaponiyaning JFUNDU (The Japanese Foundation for United Nations University) magistrlik bosqichida o'qishni xohlovchilar uchun grant dasturini e'lon qiladi. Ushbu dastur maqsadi – iqtidorli talabalarni iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash.

O'qish sohasi: Ushbu grant faqat “The Master of Science in Sustainability” yo'nalishi uchun taqdim qilinadi.

Dasturga qabul qilinishi mo'ljallangan talabalar soni: Aniq belgilab qo'yilmagan.

Iqtisodiy ta'minot: Ushbu dasturni qo'lga kiritganlar quyidagi iqtisodiy imkoniyatlar bilan ta'minlanadi:

- United Nations University universitetida o'qish uchun to'lanadigan kontrakt puli to'liq qoplab beriladi.
- Nomzod har oy 120000 yen (taxminan 1070 AQSh dollari) miqdoridagi oylik stipendiya bilan ta'minlanadi.

Eslatma: Yaponiyaga borish va kelish xarajatlari, tibbiy sug'urta to'lovi dastur tomonidan qoplab berilmaydi. Bu xarajatlarni nomzodning o'zi to'lashi lozim.

Nomzodga qo'yilgan talablar:

- Nomzod begilangan davlatlardan biri fuqarosi bo'lishi kerak (O'zbekiston ushbu davlatlar qatorida bor).
- Nomzodda barqarorlik tadqiqotlari (sustainability studies) ga kuchli qiziqish bo'lishi lozim.
- Xalqaro muammolarni o'rganish va tushunish, ularga yechimlar taklif qilish uchun tayyor bo'lishi kerak.
- Barqarorlik tadqiqotlari (Sustainability studies) ga oid yoki aloqador sohada bakalavrluk diplomiga ega bo'lishi lozim. 2018-yilning sentabrigacha bakalavrluk diplomini oluvchilar ham topshirishi mumkin.
- O'rtacha umumiy bahosi 4 dan 3.5 bo'lishi lozim.
- Ingliz tilini yaxshi bilishi kerak. Ingliz tilini bilish darajasiga qo'yilgan talablar: 600 in TOEFL – Paper-Based Testing (PBT); 100 in TOEFL – Internet-Based Testing (IBT); 7.0 in IELTS – Academic format.

Quyidagilar ushbu dasturga topshira olmaydi:

- Hozirda Yaponiyada ish vizasi asosida yashayotganlar.
- Magistrlik diplomiga ega bo'lganlar.

Hujjat topshirish jarayoni:

Ushbu dastur uchun topshiriladigan alohida ariza mavjud emas. United Nations University universitetiga ariza topshirganlar avtomatik tarzda ushbu dasturga ariza topshirgan hisoblanadi va nomzod sifatida ko'rib chiqiladi.

Universitetga ariza topshirish uchun universitetning rasmiy veb-saytiga kirish lozim. Ariza onlayn tarzda to'ldiriladi va so'ralgan barcha hujjatlar onlayn tarzda yuklanishi kerak.

Ariza topshirish uchun dastlab rasmiy veb saytdan ro'yxatdan o'tish lozim. Ro'yxatdan qanday o'tilishi haqidagi ma'lumot bilan <http://postgraduate.ias.unu.edu/forms/how-to-apply> da batafsil tanishing.

Batafsil <https://ias.unu.edu/en/admissions/degrees/msc-in-sustainability-2018.html#overview> da tanishing.

www.grantlar.uz